

O'ZBEKISTONDAGI ISLOMIY ILMIY TATQIQOT MARKAZLARI VA ULARNING JAMIYATDAGI O'RNI

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi
Bektoshev G'iyosiddin Saxriddin o'g'li*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistondagi islomiy ilmiy tatqiqot markazlarining roli va jamiyatdagi ahamiyati tahlil etiladi. Mamlakatda islomiy ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi, shuningdek, diniy bilimlarni chuqurlashtirish maqsadida tashkil etilgan markazlar, ularning tadqiqotlari, dasturlari va ta'lim yo'nalishlari ko'rib chiqiladi. Markazlar islomiy an'analar, qadriyatlar va zamonaviy ilmiy yondashuvlarni birlashtirib, jamiyatdagi diniy va axloqiy masalalarga yechim taklif qiladi. Maqolada shuningdek, islomiy ilm-fan rivojlanishining ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy jihatlari ham yoritiladi. Natijada, islomiy tatqiqot markazlari O'zbekistonda ijtimoiy barqarorlik va madaniy merosni saqlashda muhim rol o'ynayotganligi haqida xulosa chiqariladi.

Kalit so'zlar: Imom Al Buxoriy, Imom at Termiziy, Islom, O'zbekiston, UNESCO.

O'zbekistondagi islomiy ilmiy tatqiqot markazlaridan biri bu O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi (arabcha: *مركز الحضارة الإسلامية في أوزبكستان* *لدى مجلس الوزراء لجمهورية أوزبكستان*), inglizcha: *Center of Islamic Civilization in Uzbekistan under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan*) — O'zbekistonda islom tarixiga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boruvchi ilimiy markazdir.[1]

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 23 iyunda O'zbekistonda Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qildi.[2]

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining O'rta asrlar Samarqand-Hirot me'morchilik uslubida qurilayotgan binosiga tushadi. Bino 7 gektardan ortiq maydonda joylashgan. Uch qavatli binoning balandligi 145 metr va kengligi 115 metr. Markaziy gumbazning balandligi 64 metrni tashkil qiladi.

• Markaz binosida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi tarixi muzeyi alohida o'rin tutadi.

• Birinchi qavatda ilmiy-tadqiqot markazi, ma'lumotlarni raqamlashtirish va restavratsiya ishlari laboratoriyalari, muzey eksponatlari va nodir qo'lyozmalar fondi, 200 o'rinli zamonaviy kafeteriya, vestibul va kassalar joylashgan.

• Ikkinchi qavatda 15 000 kvadrat metrlik ko'rgazma zaliga ega muzey jihozlanadi. Unda buyuk ajdodlarimizning ijodiy salohiyatini ko'rsatib beruvchi turli

davrlarga tegishli eksponatlar va artefaktlar tematik tartibda namoyish etiladi. Ularning namoyishi uchun so'nggi avlod texnologiyalari va raqamli uskunalar qo'llaniladi. Muzey markazida, 64 metrli gumbaz ostida Usmon Qur'oni joylashadi. Usmon Qur'oni – islom dunyosining ulug' va bebaho yozma yodgorligi hisoblanadi.

- Shu qavatda, alohida kirish qismiga ega bo'lgan 550 o'rinli xalqaro konferensiyalar uchun mo'ljallangan ko'rkam zal jihozlanadi.

- Uchinchi qavatda 100 ming qo'lyozma va litografiya, milliondan ortiq kitob fondiga ega kutubxona joylashadi. Shu qavatning o'zida Islom sivilizatsiyasi markazining ilmiy bo'limlari, O'zbekiston musulmonlari idorasi va Xalqaro islom akademiyasi joylashadi.

- Islom sivilizatsiyasi markazi tarkibiga quyidagilar kiradi: ilmiy-tadqiqot bo'limlari, nodir qo'lyozmalar milliy reyestrini yuritish bo'limi, qo'lyozmalar fondi, kutubxona va arxivlar, xalqaro bo'lim, ziyorat turizmi, manbashunoslik va nashriyot faoliyati bo'limlari.

- Markaz binosida restavratsiya laboratoriyalari, ustaxonalar, artefaktlar va qo'lyozmalar uchun izolyatorlar, qo'lyozmalar va qimmatli nashrlarni tarjima qilish va kodlash bo'limlari ham jihozlanadi.

- Aniq va keng ko'lamli ilmiy dalillar (manbalar va materiallar) asosida O'zbekiston jahon sivilizatsiyasining markazlaridan biri ekanini ko'rsatish, ajdodlarimizning diniy va dunyoviy fanlarning rivojiga qo'shgan hissasini aks ettirish;

- Mustaqil mamlakatimizda milliy va diniy qadriyatlarni tiklash bo'yicha amalga oshirilayotgan siyosat va uning amaliy natijalarini yoritish;

- Tarixiy faktlarga tayangan holda islom sivilizatsiyasining O'zbekiston hududida bosqichma-bosqich, obyektiv va tizimli rivojlanishini namoyon etish;

- XXI asrda jahon taraqqiyoti kontekstida O'zbekistonda fan, madaniyat, zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishini ko'rsatish;

- Islomning o'zbek xalqi ma'naviy va ma'rifiy turmushidagi ijobiy o'rni va ahamiyatini ko'rsatish, yoshlarning ilm o'rganishga, har tomonlama rivojlanishiga, respublikada millatlararo va dinlararo tinchlik va hamkorlikni ta'minlashga da'vat qilish;

- O'zbekiston tomonidan olib borilayotgan ichki va tashqi siyosat misolida islomning siyosiylashtirilishi, uning shiorlaridan yomon niyatlarda foydalanish har bir mamlakat va butun jahon hamjamiyati uchun katta xavf tug'dirayotgani, dunyoviy va ma'naviy jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish zarurati va imkoniyatlari haqida tushuntirish berish;

- Jamiyatning ma'naviy yangilanishiga hissa qo'shish orqali ma'rifatli islom g'oyalarini tarqatish va targ'ib qilish, yoshlarimizda buyuk o'tmishga bo'lgan faxr tuyg'usini shakllantirish, ajdodlarimizning bebaho ijodiy merosi bilan faxrlanish va o'rta asrning yorqin aql-zakovati davomchilari bo'lish istagini uyg'otish;

• Islomning haqiqiy gumanistik, tinchlikparvar va bag'rikeng mohiyatini keng ommaga yetkazish.[3]

Markaz UNESCO, ICESCO, IRCICA kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar ko'magida dinlararo va madaniyatlararo muloqotni yo'lga qo'yishga hissa qo'shishi lozim.

Imom al Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi : Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad – movarounnahrlik alloma, muhaddis olim Imom Buxoriy hamda O'zbekiston va musulmon dunyosidan yetishib chiqqan mutafakkir va allomalarning ilmiy merosi, ularning jahon sivilizatsiyasi, ilm-fan taraqqiyoti rivojiga qo'shgan hissasini chuqur tadqiq etish va keng targ'ib qilish, kelgusi avlodni millatlar va dinlararo bag'rikenglik, o'zaro hurmat, tinch-totuv hayotni qadrlash va mustahkamlash ruhida tarbiyalash, shuningdek, xalqaro miqyosdagi ma'naviy-ma'rifiy muloqot va hamkorlikni kuchaytirishdan iborat.

Qur'ondan keyingi manba hisoblangan „Sahihul Buxoriy“ asarining muallifi, muhaddis olim Imom Buxoriy (810-870) maqbarasi joylashgan maskan (Samarqand viloyati, Payariq tumani, Xoja Ismoil qishlog'i)da O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish to'g'risida 2016-yilning oktabr oyida Toshkent shahrida o'tkazilgan Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashining 43-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi tomonidan ilgari surilgan tashabbus asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-martdagi PQ-2855-son „O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida“gi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 10-iyuldagi 483-son „O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi faoliyatini tashkil etish to'g'risida“gi qarori^[1] bilan Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi (keyingi o'rinlarda Markaz deb ataladi) davlat muassasasi shaklida tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-yanvarda Samarqand viloyatiga tashrifi chog'ida zamonaviy va milliy arxitektura yutuqlari asosida yangidan bunyod etilgan va jihozlangan Markaz binosi hamda manzarali daraxt va gul ko'chatlari o'tqazilib, ko'kalamzorlashtirilgan 6,5 ga maydon foydalanish uchun topshirildi.^[4] Markaz binosida ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish uchun barcha zamonaviy qulayliklarga ega va zaruriy axborot texnologiyalari hamda mebellar bilan jihozlangan xonalar, zamonaviy kutubxona, Imom Buxoriy hayoti va faoliyati bilan bog'liq eksponatlar joylashgan muzey tashkil etilgan.[4]

Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi muzey fondidagi mavjud vitrinalardan Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy hayot yo'li va

ilmiy-ma'naviy merosi haqida ma'lumot beruvchi musavvirlik ishlari, nodir asarlar va boshqa eksponatlar o'rin olgan.

Imom Buxoriy hayotiga oid musavvirlik ishlari taniqli rassom Alisher Aliqulov boshchiligidagi Husan Qosimov, Murod Azlar Xodjayev, Baxtiyor Alimxonov, Husan Xolov, Mas'ud Xolov va boshqa rassomlar tomonidan bajarilgan. Muzey eksponotlari orasidan xarita ham o'rin olgan bo'lib, unda Imom Buxoriyning ilmiy safarlari aks etgan. Xaritaning pastki qismida lavh (XIX asr), chiroq (IX asr), qalamdon (XIX asr), siyohdon (IX asr) va juzgir (XIX asr) o'rin olgan.

• Hadis ilmining taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan Imom Buxoriy va boshqa mutafakkirlarning ilmiy va diniy merosini o'rganish, ular yaratgan asarlarning ilmiy-izohli tarjima va qiyosiy matnlarini nashr etish orqali o'zbek xalqi va jahon jamoatchiligi o'rtasida keng targ'ib qilish, ushbu mavzularga tegishli ilmiy tadqiqotlarni tizimli tashkil etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

• jahonda sodir bo'layotgan globallashuv jarayonida dunyoda, mintaq va mamlakat hayotida islom dinining insonparvarlik mohiyatini, uning ma'rifiy-madaniy rolini va rivojlanish yo'nalishlarini ilmiy asosda o'rganish va keng jamoatchilikka yetkazish;

• O'zbekiston hamda xorijiy davlatlarning kutubxonalari va arxiv fondlarida saqlanayotgan allomalarning ijodiy merosiga tegishli hamda islom dunyosi uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan qo'lyozma, toshbosma asarlarning elektron nusxalarini to'plash va ularni kelajak avlodga yetkazish uchun tizimli ilmiy-tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlarini belgilash va amalga oshirish;

• islom madaniyati va sivilizasiyasini ilmiy tadqiq etish sohasidagi xalqaro aloqalarni kuchaytirish maqsadida ilmiy-nazariy va uslubiy masalalarga bag'ishlangan konferensiyalar, simpoziumlar, ko'rgazmalar va ilmiy ma'ruzalar, seminar-treninglar, tanlovlar va boshqa madaniy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish;

• Islom diniga oid ilmiy, tarixiy-madaniy va ma'naviy-ma'rifiy meros salohiyatini, shu jumladan qo'lyozmalar va arxiv fondlarida saqlanayotgan manbalarni hisobga olgan holda, o'rganish va tadqiqot natijalari yuzasidan qomuslar, kataloglar, al'bomlar, ilmiy-ommabop hujjatli filmlar, axborot-resurs bazasini tayyorlash va ommaviy axborot vositalarida, xususan Internetda e'lon qilishni tashkil etish;

• Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha islom tashkiloti (ISESCO) va mazkur yunalishda xorijiy davlatlarda tashkil etilgan markazlar bilan islom tarixi, falsafasi, huquqi, manbashunosligi va madaniyati bo'yicha ilmiy loyihalar, xalqaro hamkorlikdagi tadqiqotlarni amalga oshirish va uning natijalarini nashr etish;

• „Jaholatga qarshi – ma’rifat“ g’oyasi asosida islom diniga nisbatan sodir etilayotgan asossiz xurujlarning oldini olish, shuningdek diniy aqidaparastlik, mutaassiblik, ekstremizm, missionerlik, soxta tariqatlar va jamoalarning maqsadlari, g’oyaviy-aqidaviy negizlari, zamonaviy shakllarini va faoliyat usullarini o’rganish va ularga qarshi kurashning ilmiy-ma’rifiy asoslarini ishlab chiqish hamda amaliyotda qo’llash uchun tavsiya etish.[5]

2019-yil 22-iyun kunlari Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazida „O‘zbekistondagi qo‘lyozma fondlari: muhofaza qilish, kataloglashtirish va mutaxassislar malakasini oshirish“ mavzusiga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy o‘quv seminari o‘tkazilib, unda Islom hamkorlik tashkiloti (OIS)ning Islom tarixi, san’ati va madaniyatini tadqiq qilish markazining (IRCICA) bosh direktori, professor Xolit Eren ham ishtirok etadi va Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markaziga „Sahih al-Buxoriy“ asarining XI asrga oid qo‘lyozmasi foto nusxasi hamda Sulton Abdulhamid tomonidan XIX asrda tayyorlangan Muqaddas Ka’ba va uning hududi aks etgan kitob albomini sovg‘a qiladi.

Markaz 33 xalqaro tashkilot bilan hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘ygan. Bular:

- „Al-Furqan“ islom merosi fondi;
- „OXFORD“ islom ta’limi markazi;
- „Cambridge“ markaziy osiyo forumi tashkiloti;
- Gyote universiteti;
- Al-Azhar universiteti;
- Osnabruck universiteti;
- Kastomonu universiteti;
- Istanbul universiteti;
- Anqara universiteti;
- Islom tadqiqotlari markazi;
- Islom tarixi, san’ati va madaniyatini o’rganish markazi;
- Bulg‘or islom akademiyasi;
- Malayziya islom ilmlari universiteti.[6]

Yana eng yirik markazlardan biri bu Imom at Termiziy ilmiy tadqiqot markazi hisoblanadi. Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi — O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-fevraldagi “Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2774-sonli qarori asosida tashkil etilgan.^[1] Markazda 40 ga yaqin xodim faoliyat olib boradi. Ilmiy tadqiqotlar markazi islom dinining, Qur’oni karim va hadis ilmining asl mohiyatini, hadisshunoslik maktabining ilmiy-ma’naviy asoslarini, Imom Termiziy hamda termiziy allomalar va bu yerdan yetishib chiqqan mutafakkir zotlar merosini har tomonlama chuqur o’rganish va keng targ‘ib etish, yuksak insoniy g‘oyalar va muqaddas qadriyatlarni o‘zida ifoda etgan manbalarni tizimli asosda tadqiq etish,

ulardan diniy ta'lim, ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlarida foydalanish maqsadida zarur darsliklar va o'quv qo'llanmalari, ommabop nashrlar, ilmiy-amaliy tavsiyalar tayyorlash yuzasidan doimiy ish olib boorish, turli mafkuraviy xurujlar avj olayotgan bugungi kunda allomalarning ma'naviy merosini chuqur o'rganish, ulardagi ezgu g'oya va ta'limotlarni keng xalq ommasiga yetkazish va shu asosda yoshlarda sog'lom dunyoqarashni kuchaytirish, ularni azaliy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash kabi vazifalarni amalga oshiradi. 10 nafar ilmiy xodim buyuk allomalar ilmiy merosiga bag'ishlangan mavzularda, 5 nafari falsafa doktori (PhD), 5 nafari fan doktori (DS's) dissertatsiyasi ishlarini himoyaga tayyorlamoqda. Bo'limda 6 nafar ilmiy xodim faoliyat olib boradi.

Xalqaro va mahalliy ilmiy jurnallar, xalqaro anjumanlar to'plamlar, xalqaro va mahalliy gazetalarda 200 dan ziyod ilmiy-ommabop maqolalar nashr qilindi. 2017-2022 yillar davomida Markaz ilmiy xodimlari tomonidan 58 ta termiziy va boshqa allomalarning merosiga oid ilmiy va ommabop kitoblar, risolalar, darsliklar, sharhlar va tahqiqatlar nashr qilindi. Bundan tashqari 13 ta termiziy va boshqa allomalarning merosiga oid ilmiy va ommabop kitoblar, qo'lyozma tafsiri tahqiqi va o'quv qo'llanmalar nashr qilish uchun tayyor holga keltirildi.

O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi telekanallari bilan hamkorlikda "Buyuk termiziylar", "Jaholatga qarshi ma'rifat" va boshqa ruknlar ostida 100 da ortiq ko'rsatuv-videoroliklar va radioeshittirishlar tayyorlandi. O'tgan yillar davomida Markazning ilmiy xodimlari "Ekstremistik va terroristik tashkilotlarning g'arazli niyatlari va muqaddas islom dinining asl mazmun-mohiyati" va "Jaholatga qarshi ma'rifat" shiorlari ostida Surxondaryo viloyatidagi OTM lardagi o'quvchi va yoshlarni qamrab olgan 200 dan ziyod ma'naviy-ma'rifiy, targ'ibot tadbirlari, suhbat va uchrashuvlar o'tkazdilar. Xalqaro aloqalar va ziyorat bo'limi Markazning xalqaro aloqalarini muvofiqlashtiruvchi va turizmni rivojlantiruvchi tuzilmasi hisoblanib, u Imom Termiziy va termiziy allomalarning boy merosini o'rganish va keng targ'ib etish maqsadida xorijiy ilmiy markazlar, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, xalqaro konferensiya, simpozium, ko'rgazma, ilmiy ma'ruzalar, seminar-treninglar, tanlovlar va boshqa madaniy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish, turizmni rivojlantirish kabi funksiyalarni bajaradi. Bo'limda 2 nafar ilmiy xodim faoliyat olib boradi. Hozirgi vaqtda bo'lim tomonidan Imom Termiziy va termiziy allomalarning benazir merosini yurtdoshlarimiz va xalqaro jamoatchilik o'rtasida keng targ'ib qilish maqsadida Markaz tomonidan 30 ga yaqin xalqaro-mahalliy konferensiya, anjumanlar, xalqaro va mahalliy foto ko'rgazmalar tashkil etildi. Xorijdagi nufuzli universitet va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan 10 dan ortiq memorandum imzoladi. Markaz ilmiy xodimlari 100 ga yaqin xalqaro onlayn va oflayn konferensiya va seminarlarda o'z ilmiy ma'ruzalari bilan ishtirok etdilar.

Markaz tomonidan “Sunani Termiziy” asarining 3 jildli sharhi va “Buyuk termiziylar” risolalari Buyuk Britaniyaning “Al-Furqon” islom merosi fondi, Oksford islom tadqiqotlari markazi, London islom madaniyat markazi va mamlakat oliy o‘quv yurtlari, oliy va o‘rta maxsus islom bilim yurtlarida xalqaro va mahalliy taqdimotlar o‘tkazildi.

Markaz xodimlari Buyuk Britaniya, Turkiya, Malayziya, Rossiya kabi davlatlardagi turdosh markazlar va universitetlarda tashkil etilgan malaka oshirish va o‘quv kurslarida ishtirok etdi/ Yana bir ilmiy xodim Buyuk Britaniyadagi Oksford islom tadqiqotlari markazi grantini qo‘lga kiritib, ilmiy stajirovkasini o‘tkazib keldi. Shuningdek, Markazning 1 nafar xodimi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturining yoshlarni bandlikka ko‘maklashish dasturi doirasida “Startap tashabbuslari” yo‘nalishida yoshlar o‘rtasidagi innovatsion g‘oyalar bo‘yicha o‘tkazilgan ko‘rik tanlovida xalqaro tashkilot grantini qo‘lga kiritdi.

O‘tgan yillar davomida Markaz dunyoning 10 ta davlatdagi 30 ta ilmiy markazlar va universitetlari bilan xalqaro ilmiy aloqalarni yo‘lga qo‘ydi. Xususan, Buyuk Britaniyaning Oksford islom tadqiqotlari markazi, London islom madaniyati markazi, London al-Furqon fondi, London Imom Moturidiy markazi, AQShning Yunion, Kentukiy universitetlari, Saudiya Arabistonining Riyoz shahridagi “Informatsiya va arab-rus tadqiqotlari” markazi, Germaniyaning ifa (Institut für Auslandsbeziehungen) tashqi aloqalar intituti va “Afghanistan Naween Research and Studies organization”, Turkiya Shehir universiteti, Sakarya universiteti, Marokash Abdumalik Sa’diy universiteti, Islom tarixi, san’ati va madaniyati ilmi-tadqiqot markazi (IRSIKA), Turkiya Ulug‘dog‘ universitetlari, Hindistodagi Jamiya Milliya Islamiya, Xalqaro islom tadqiqotlar akademiyasi, Aligarh islom universiteti, Patna shahridagi Xudobaxsh jamoat kutubxonadi, Dehlidagi Navdatul-ulamo islom talim muassasasi, Rossiyadagi Balgar islom akademiyasi, Ufa shahridagi Moskva Islom Instituti, Qozon federal universiteti, Afg‘oniston Imom Rabboniy ta’lim universiteti va Javzjon universitetlari bilan aloqalar bog‘landi va o‘zaro hamkorlik o‘rnatishga kelishib olindi. Markaz xodimlari 2022-yil 16-20-may kunlari Toshkent va Buxoro shaharlarida o‘tkazilgan “Deklaratsiyalar muloqoti” xalqaro forumida o‘zlarining ma’ruzalari bilan ishtirok etishdi.

Axborot-resurs markazi O‘zbekistonda hamda xorijiy davlatlarning kutubxonalari va qo‘lyozma fondlarida saqlanayotgan termiziy allomalar hamda buyuk mutafakkirlaning qo‘lyozma va toshbosma asarlari nusxalarini, ular haqidagi kitoblarni to‘plash va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boradi. Bo‘limda 2 nafar ilmiy xodim faoliyat olib boradi. Markazning qo‘lyozmalar fondida allomalar merosiga oid 100 ga yaqin toshbosma asarlar mavjud. Bundan tashqari 500 ga yaqin Imom Termiziy va termiziy allomalar merosiga oid qo‘lyozma asarlarning elektron bazalari, 1000 ga yaqin islom merosiga oid qo‘lyozma asarlarning elektron bazalari shakllandi. 1000 ziyod termiziy

olimlarning qo'lyozmalarini o'z ichiga olgan "Termizlik olimlar asarlarining jahon fondlaridagi qo'lyozmalari katalogi" nashr qilindi. Turkiyada saqlanayotgan 100 dan ziyod termiziy olimlarning qo'lyozmalari katalogi tayyorlandi.[7]

"Vaqq" xayriya jamoat fondi va O'zbekiston musulmonlar idorasi tasarrufidagi "Movarounnahr" nashriyoti, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, "O'zbekiston Fanlar akademiyasi" Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti, "Hilol-Nashr" nashriyot-matbaasi tomonidan 1000 dan ziyod kitoblar Markazga beg'araz yordam sifatida taqdim etildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish markazi tomonidan Markaz fondiga Hakim Termiziya oid qalamiga mansub qo'lyozmalar majmuasining elektron nusxasi xorijdan olib kelindi. Axbobot texnologiyalar va multimedia bo'limi ma'naviy merosni o'rganishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, ilm-fan yutuqlaridan keng foydalanishga doir tegishli ilmiy ishlanma va tavsiyalarni tayyorlash kabi vazifalarni amalga oshiradi. Bo'limda 4 nafar ilmiy xodim faoliyat olib boradi. Internet va ijtimoiy tarmoq saytlarida Markazning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga doir 1500 ta ma'lumotlar, videolar, infografiklar va rasmlar joylashtirildi.[8]

O'zbekistonda islomiy ilmiy tadqiqot markazlari mamlakatning diniy va madaniy hayotida muhim rol o'ynaydi. Ular islom ilm-fanini rivojlantirish, diniy tadqiqotlarni chuqurlashtirish va zamonaviy muammolarni hal etishda muhim ahamiyatga ega. Bu markazlar islomiy an'analar va zamonaviy bilimlarni birlashtirib, yosh avlodni tarbiyalashda, ilm-fan va diniy ma'rifatni oshirishda faol qatnashmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistondagi islomiy ilmiy tadqiqot markazlari, nafaqat diniy bilimlarni o'rganish va tarqatish, balki jamiyatda ilmiy va ma'rifiy darajani oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. Ular islom madaniyatining qadriyatlarini saqlab qolish va uni kelajak avlodlarga etkazishda xizmat qilmoqda

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.A. Raximdjano'v va O.K. Ernazarov "Dinshunoslikka kirish" O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, Toshkent 2018
2. A.Abdusamedov, B.Jalilov, A.Tashanov "Dinlar falsafasi" Toshkent Innovatsiya-Ziyo, 2020
3. Z.M. Islomov, N.A. Muhamedov, F.A. Sindarova "Dinshunoslik", Toshkent Niso Poligraf 2016
4. A.V.Narbekov "Dinshunoslik asoslari", Toshkent 2008
5. Q.O.Mahkamovning "Dinshunoslik" Namangan 2020

6. Zagorin, Perez (2003). *How the Idea of Religious Toleration Came to the West* Princeton, N.J.: Princeton University Press [ISBN 978-0-691-09270-6](#). [OCL C 509 822 70](#)
7. Vahland, Joachim (2017). "Tolerance discourses". Zeno. No. 37. pp. 7–25.
8. Gervers, Peter; Gervers, Michael; Powell, James M., eds. (2001). *Tolerance and Intolerance: Social Conflict in the Age of the Crusades*. Syracuse University Press. [ISBN978-0-8156-2869-9](#).